



12.01.2022 даги

МЧЖ "БухороНефтебазаси" ва Шофиркон туман ирригация булими ўртасида 8873667,00 сўм умумий
суммага тузилган 1 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 170
Шахсий ғазна ҳисобварак 100022860062587042402170001

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4252500			
Январь	8 873 667,00			8 873 667,00
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	8 873 667,00			8 873 667,00

Жами 8873667,00 сўм

Саккиз миллион саккиз юз етмиш уч минг олти юз олтмиш етти
сўм 00 тийин
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 100% жорий ойда 2022 йил давомида хар ойнинг 30 санвсигача ойлик равишда тўланиши лозим.


(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;


(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойдаги _____% жорий ойнанинг _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва конун ҳужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари
М.Ў.




(имзо) Очиллов Давлат Казокович.
Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери


(имзо) Махмудов Кенжа Тураевич
Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди _____
(имзо)

Буюртмачи ходими
қабул қилди _____
(имзо)

«___» _____ 20__ й.

«___» _____ 20__ й.

Neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi

ShARTNOMA № 1

"12" yanvar 2022-yil.

Kogon tumani.

"Buxoro neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda "Mahsulot yetkazib beruvchi") nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor I.I.Norov bir tomondan, Shofirkon tuman Irrigatsiya bo'limi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi") nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi raxbari D. Ochilov ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. ShARTNOMA MAZMUNI

1.1. "Mahsulot yetkazib beruvchi", "Iste'molchi"ga neft mahsulotlarini "Iste'molchi"ning talabnomada ko'rsatilgan ehtiyojlariga asosan tuzilgan va quyida keltirilgan jadvalga binoan yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

Neftmahsulotlari turi	Yillik miqdor (tonna)	1 tonna narxi (so'mda)	Summasi	Shu jumladan choraklar bo'yicha							
				I-chorak		II -chorak		III -chorak		IV-chorak	
				tn	Summa	tn	Summa	tn	Summa	tn	Summa
Avtobenzin AI-80	0,38	9051790	3439680.20	0,38	3484939,15	-	-	-	-	-	-
Avtobenzin AI-91	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
DT	0.44	12349970	5433986.80	0.44	5508086,62	-	-	-	-	-	-
JAMI:			8873667		8873667	-	-	-	-	-	-

1.2. "Iste'molchi" mahsulot uchun to'lovni va mahsulotni qabul qilib olishni tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan belgilangan muddatda va hajmda amalga oshirishni o'z zimmalariga oladi.

Neft mahsulotlarini hisob — kitobi va tarqatilishi amaldagi qonun va me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

2. ShARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Ushbu shartnomaga asosan yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxi QQS (15%) ni hisobga olgan holda ko'rsatiladi.

2.2. Shartnomaning umumiy summasi 8873667 (Sakkiz million sakkiz yuz etmish uch ming o'lyi yuz oltmish etti) so'mni QQS bilan tashkil qiladi.

2.3. Neft mahsulotlarining narxi belgilangan tartibda o'zgartirilgan kundan boshlab yetkazib beriladigan neft mahsulotlariga yangi narx qo'llaniladi. "Iste'molchi"ning haqdorligi mavjud bo'lgani holda narx o'zgartirgan kungacha olib ketilmagan neft mahsulotlari ham yangi narxlarda "Iste'molchi"ga yetkazib beriladi (sotiladi).

2.4. Yetkazib beriladigan (berilgan) neft mahsulotlari uchun to'lov 100% pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. "Iste'molchi"ning huquqlari:

a) ushbu shartnomaga asosan tegishli sifatdagi va assortimentdagi neft mahsulotlari yetkazib berishni "Mahsulot yetkazib beruvchi" dan talab qilish;

b) yetkazib berilgan Neft mahsulotlari sifatini aniqlashda ishtirok etish; v)

sifatsiz Neft mahsulotlari yetkazib berilgan hollarda "Iste'molchi":

- sifatli ana shunday turdagi neft mahsulotlarini "Mahsulot yetkazib beruvchi" hisobidan yetkazib berilishini talab qilish;

- neft mahsulotlarining sifatini "Mahsulot yetkazib beruvchi" hisobidan tiklashni talab qilish;

- yetkazib berish muddatlari buzilgan yoki sifatsiz neft mahsulotlari yetkazib berilgan hollarda mahsulotni qabul qilishni rad etish;

- g) "Mahsulot yetkazib beruvchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

3.2. Iste'molchilarning majburiyatlari:

a) mazkur shartnomaga asosan yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning bankdagi hisob raqamiga oldindan 100% to'lovni amalga oshirish;

- b) shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan neft mahsulotlarini miqdor va sifati bo'yicha qabul qilib olish;
- v) mahsulotlardan belgilangan maqsadlarda foydalanish.

3.3. "Mahsulot yetkazib beruvchi" quyidagi huquqlarga ega:

- a) mazkur shartnoma majburiyatlari "Iste'molchi" tomonidan to'liq yoki qisman bajarilmagan taqdirda hamda uning natijasida "Mahsulot yetkazib beruvchi"ga moddiy zarar yetkazilsa "Iste'molchi"ga nisbatan jarima sanksiyalarini qo'llash va yetkazilgan zararni undirib olish choralarini ko'rish, shu jumladan sudlarga da'vo arizalari kiritish;
- b) shartnomaga asosan "Iste'molchi"ga yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilishdan asossiz bosh tortganligi natijasida yetkazilgan zararning qoplanishini "Iste'molchi"dan talab qilish;
- v) yetkazib berilgan neft mahsulotlari sifatining shartnomada belgilangan talablarga, shuningdek, amaldagi standartlar va normativlarga muvofiqligini ta'minlash;
- g) agar neft mahsulotlarini yetkazib berish jarayonida "Mahsulot yetkazib beruvchi" shartnoma shartlari va normativlaridan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Iste'molchi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 5 kun muddatda o'z hisobidan bartaraf etish;

4. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Majburiyatlar mazkur shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar taraflar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

4.2. Neft mahsulotlarini yonilg'i tarqatish shaxobchasidan yetkazib berilganda, rasmiylashtirilgan tarqatish varaqasida "Iste'molchi" vakilining mahsulotni qabul qilganligi to'g'risida imzosi qo'yilgan sana, agar mahsulot "Mahsulot yetkazib beruvchi" ning omboridan "Iste'molchi"ning vakili tomonidan transport vositasida olib ketilganda tovar-transport hujjatlari rasmiylashtirilgan sana "Mahsulot yetkazib beruvchi" tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.3. Neft mahsulotlari uchun oldindan haqini to'laganligi va "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning topshirig'i (taqsimot reestri)ga muvofiq "Mahsulot yetkazib beruvchi" tomonidan neft mahsulotlari yetkazib berilganida "Iste'molchi" tomonidan o'z vaqtida qabul qilib olishi "Iste'molchi" tomonidan shartnomaviy majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. Neft mahsulotlari "Iste'molchi"ga yonilg'i tarqatish shaxobchalaridan tarqatish vedomostlari asosida belgilangan tartibda yoki transport vositasida yetkazib berilishi mumkin.

4.5. "Iste'molchi"ning roziligi bilan haqi to'langan neft mahsulotlari muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. Ushbu neft mahsulotlari keyingi davrlarda yetkazib berilishi kerak bo'lgan mahsulot hisobiga o'tkaziladi.

4.6. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda neft mahsulotlari yetkazib berilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi yetkazib berilmagan neft mahsulotlari o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va yetkazib berilmagan neft mahsulotlarining o'rni qoplanishi (to'ldirilishi) lozim bo'ladi, bunday neft mahsulotlarini yetkazib berish "Iste'molchi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha amalga oshirilishi hollari bundan mustasno.

4.7. Yetkazib berilgan neft mahsulotlari bevosita "Iste'molchi"ning mas'ul xodimi tomonidan qabul qilib olinadi. Topshirish-qabul qilish hujjatida yetkazib berilgan neft mahsuloti miqdori ko'rsatiladi. Sifatiga oid hujjatning nusxasi "Iste'molchi"ning talabi bilan beriladi.

4.8. Neft mahsulotlarini yetkazib berish mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

5. SHARTNOMANING AMAL QILISHI.

5.1. O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi"ning 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng joriy moliya yili davomida amalda bo'ladi.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Agar yetkazib berilgan neft mahsulotlarining sifati, assortimenti, navlari standart texnik shartlar talablariga, na'munalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarag javob bermagan taqdirda, "Mahsulot yetkazib beruvchi" sifati zarur darajada bo'lmagan neft mahsulotlari qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.2. Neft mahsulotlarini kechiktirib yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq yetkazib berilmagan taqdirda "Mahsulot yetkazib beruvchi" "Iste'molchi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penya summasining umumiy miqdori yetkazib berilmagan neft mahsulotlari qiymatining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Yetkazib berilgan neft mahsulotlari uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda, "Iste'molchi" "Mahsulot yetkazib beruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida **penya** to'laydi, biroq kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmashligi kerak.

6.4. "Iste'molchi" tomonidan sarflangan transport xarajatlari va boshqa qo'shimcha to'lovlarni to'lamaganligi uchun "Mahsulot yetkazib beruvchi" "Iste'molchi"ga to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4 foizi, biroq to'lov muddati o'tkazib yuborilgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda **penya** to'laydi.

6.5. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

7. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH

7.1. Taraflardan biri shartnomani fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar – zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala, qonun va qonunosti hujjatlardagi o'zgartirishlar va xokazolar) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi isbotlansa, javobgar bo'lmaydilar.

7.2. Ushbu shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanishi va tugashi to'g'risida taraflar zudlik bilan bir-birlarini, "Mahsulot yetkazib beruvchi"ni hamda yengib bo'lmaydigan kuch holatlari (fors-major)ni tasdiqlash bo'yicha komissiyani yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

7.3. Fors-major holatlari bo'yicha kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda taraflar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda yoki tuman (shahar)lar xokimliklari huzurida tashkil etiladigan yengib bo'lmaydigan kuch holatlari (fors-major)ni tasdiqlash bo'yicha komissiya ishtirokida ularni sudgacha hal etish chora- tadbirlarini ko'radilar. Fors-major holatlarini aniqlashda shartnoma taraflari qatnashishi lozim.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Mazkur shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, taraflar qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

8.2. Taraflar o'zaro kelisholmagan taqdirda, kelishmovchilik va nizolar tegishli tartibda iqtisodiy sudga hal qilinadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuviga ko'ra yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, ikkinchi tarafning talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar qonunchilikda belgilangan tartibda yozma shaklda amalga oshirilishi va taraflarning bunga zarur darajada vakolatga ega bo'lgan vakillari tomonidan imzolanganidan so'nggina haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga egadir.

9.4. Shartnomaning bajarilishida bir tomonlama rad etish yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"Iste'molchi"

"Buxoro neft bazasi" MChJ

Manzil: Buxoro viloyati, Kogon tumani,
Tutkunda MFY

X/r: 20210000904268620001

MFO: 01115 INN: 204587384

BANK: XATV "Orient Finans bank" Toshkent
sh, Shayxontoxur filiali

tel: 65-228-74-77, 65-228-72-10 (bux-ya)

Direktor:  I.I. Norov

ISBB: _____



Shofirkon tuman Irrigatsiya bo'limi

Manzil: Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi

INN: 207264753, OKONX: 01613

ShXV: 100022860062587042402170001

Moliya vazirligi G'aznachiligi Shofirkon tuman bo'limi

INN: 201122919

X/r: 23402000300100001010

MFO: 00014

BANK: Markaziy bank Toshkent shahar BB HKKM

Boshliq:  D. Ochilov



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA YURIDIK XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi. Neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi.

Shofirkon tuman Irrigatsiya bo‘limi va “Buxoro neft bazasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati o‘rtasidagi mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Shofirkon tuman Irrigatsiya bo‘limi tomonidan 2022-yil 8-yanvar kunda ishlab chiqilgan va rad etilgan hamda markazga yuridik xulosa uchun 2022-yil 11-yanvar kunda qayta taqdim etilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



B.Safarov